

YOSH AVLODNING ONGIGA SALBIY TA`SIR QILUVCHI YOT G`OYALAR VA  
ULARNI OLDINI OLISHNING O`ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Xakimov Ziyod Zaidovich

IV Akademiyasi Xarbiy tayyorgarlik kafedrasi boshlig'i o'rinnbosari

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola orqali siz yoshlarning ongiga salbiy ta`sir qiluvchi yot va buzg`unchi g`oyalar, yoshlarning narmal fiziologik rivojlanishiga to`sqinlik qiluvchi kuchlar, ularning turlari hamda ta`sir doirasini kamaytirish va oldini olishda ota ona, jamoatchilik tashkilotlari va o`quv dargohlarining asosiy vazifalari haqida bilib olishingiz mumkin.*

**Kalit so`zlar:** *yot g`oya, buzg`unchi g`oya, ekstremizm, dunyoqarash, mafkura, ma`naviyat, ong, pedagogik mahorat, fiziologik rivojlanish.*

## ИНОСТРАННЫЕ ИДЕИ, ОКАЗЫВАЮЩИЕ НЕГАТИВНОЕ ВЛИЯНИЕ НА СОСМОЗАНИЯ МОЛОДЕЖИ, И ОСОБЕННОСТИ ИХ ПРОФИЛАКТИКИ.

**Аннотация:** *Посредством этой статьи вы можете помочь родителям, общественным организациям и образованию в уменьшении и предотвращении посторонних и деструктивных идей, негативно влияющих на сознание молодежи, сил, препятствующих нормальному физиологическому развитию молодежи, их видов и масштабов влияния. узнать об основных задачах даргаев.*

**Ключевые слова:** *чужая идея, деструктивная идея, экстремизм, мировоззрение, идеология, духовность, сознание, педагогическое мастерство, физиологическое развитие.*

## FOREIGN IDEAS THAT HAVE A NEGATIVE INFLUENCE ON THE MINDS OF YOUNG PEOPLE AND SPECIFIC CHARACTERISTICS OF THEIR PREVENTION.

**Annotation:** *Through this article, you can help parents, public organizations and education in reducing and preventing foreign and destructive ideas that negatively affect the minds of young people, forces that prevent the normal physiological development of young people, their types and scope of influence. you can find out about the main tasks of dargahs.*

**Key words:** *foreign idea, destructive idea, extremism, worldview, ideology, spirituality, consciousness, pedagogical skill, physiological development.*

*Bugungi tez o'zgarayotgan dunyo insoniyat oldida, yoshlar oldida yangi yangi, buyuk imkoniyatlar ochmoqda. Shu bilan birga, ularni ilgari ko'rilmagan turli yovuz xavf-xatarlarga ham duchor qilmoqda. G'arazli kuchlar sodda, g'o'r bolalarni o'z ota-onasiga, o'z yurtiga qarshi qayrab, ularning hayotiga, umriga zomin bo'lmoqda. Bunday keskin, tahlikali sharoitda biz ota-onalar, ustoz-murabbiylar, jamoatchilik, mahalla ko'y bu masalada hushyorlik va ogohlilikni yanada oshirishimiz kerak. Bolalarimizni birovlarning qo'liga berib qo'ymasdan, ularni o'zimiz tarbiyalashimiz lozim.*

*Shavkat Mirziyoyev*

Internet keng imkoniyatlar eshigini ochdi. Uydan ko'chaga chiqmay turib global tarmoq orqali dunyo kutubxonalari bo'ylab sayr qilib, kurrai zaminning narigi chekkasida joylashgan oliy ta'lif muassasasining masofaviy (virtual) talabasi bo'lish, hatto elektron xizmatlarni (matnlarni tarjima qilish, video va audiomahsulotlarni tayyorlab berish, kitob va risolalarni sahifalash va hokazo) shartnomaga orqali bajarish, pul ishlab topish mumkin. Xullas, internetning ijobiy jihatlari bisyor.

Ijtimoiy tarmoqlar yoki messennjerlarning qulayligi-chi? Onlayn konferensiyalar o'tkazish, onlayn malaka oshirish, yaqinlar va tanish-bilishlar bilan tez, arzon video yoki audiomuloqot qilish.

Mana shu jihatlari bilan internet keyingi paytlarda jozibadorlikda televideniye, radio va boshqa axborot vositalarini ortda qoldirmoqda.

Lekin internet ko'plab foydali jihatlari bilan birga salbiy oqibatlarini ham namoyon qilmoqda. Aholida ayniqsa **yoshlarda** axborot iste'moli madaniyatining sustligi, turli xabarlar oqimidan kerakligini ajratib olishda bilim, malaka va ko'nikmaning yetishmasligi ba'zilarning g'arazli kimsa va oqimlar ta'siriga tushib qolishlariga, internet qaramligi kasalligiga yo'liqishlariga sabab bo'lmoqda. Xitoy Xalq Repspublikasida internetga qaramlik kasallik sifatida e'tirof etilib, uni davolovchi maxsus shifoxonalar tashkil etilgani so'zimizning isbotidir.

Global tarmoq natijasida yuzaga kelgan eng katta muammo, bu, albatta, qaramlik, tobelik kasalligidir. Yoshlarning ko'p vaqtini inernetda o'tkazishlari global muammoga aylanib ulgurgan. Bugun internet ayrim yoshlar uchun mashhur yozuvchi Xudoyberdi To'xtaboyevning "Sariq devni minib" asari qahramoni Hoshimjon topib olgan sehrli qalpoqchadir.

Umuman, internetga qaramlikning eng og'ir jihat real olamni, insoniylik burchi va vazifalarini unutishdir. Inson haqiqiy hayotda yashashi, halol mehnat qilishi, ilm olishi, zimmasidagi vazifalarini sidqidildan bajarishi, elu yurtiga fidoyilik bilan xizmat qilishi, atrofdagilarga foyda keltirishi zarur.

Internetda ko'p vaqtini o'tkazadigan insonning ruhiyatida mavhumlik va o'z qobig'iga o'ralib olish holati kuzatiladi. Bu esa uni kelajakda "uchinchi kuchlar" tomonidan manqurtlashishi, zombilashtirilishi uchun zamiin yaratadi. Bugungi kunda buzg'unchi guruuhlar yoshlar ongiga ta'sir qilishda asosan internetdan foydalananoyotganlari bejiz emas.

Internetning yana bir salbiy jihat-kishilardagi xudbinlik, manmanlik, zamonaviy tilda ifoda etganda, egosentrizm illatining kuchayishiga sabab bo'lishidir.

Bugungi dunyo yoshlari-son jihatidan butun insoniyat tarixidagi eng yirik avloddir, chunki ular 2 milliard kishini tashkil etmoqda. Bugun internet madaniyati, virtual madaniyat, axborot madaniyati, ma'lumotlardan to'g'ri foydalanish madaniyati kabi tushunchalar hayotimizdan o'rinni egalladi. Yoshlarda internet olamida o'z o'rnini to'g'ri belgilash va foydalanuvchilar bilan to'g'ri muomala qilish, virtual olamdagagi axborotlarni to'g'ri tahlil qilish malakasini shakllantirish davr talabidir.

Hozirgi davrda Internet tarmog'iga ulangan kompyuter, mobil telefonlari deyarli ko'plab xonadonlarda mavjud. Bundan tashqari, yoshlar internet kafelarda ham tarmoqdan foydalana oladilar. Bugungi kunda axborot texnologiyalari jadal taraqqiy etishi va ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha jabhalariga joriy etilishi sababli barcha uchun kompyuter savodxonligi dolzarb masalalardan biridir.

Yoshlar ijtimoiy tarmoqlar kengayib borayotgan davrda o'sib ulg'aymoqda. Bu quvonarli hol albatta. Biroq har narsaning me'yori bo'lmog'i zarur. Yoshlar virtual olamning haqiqiy olam emasligini bilib borishlari shart. Ba'zan bolalar kattalar tomonidan nazoratsiz va ularning ruxsatisiz tarmoqqa tashrif buyurish imkoniga ega bo'lib qoladilar. Bolalar va o'smirlar Internet tarmog'ida sayr qilarkan, ularga umuman kirish mumkin bo'limgan saytlarga duch kelishlari mumkin.

Tabiiyki, bunday axborotlar qiziquvchan yoshlarni o'ziga ko'proq jalg' etadi. Biror harakatni amalga oshirishda bolalarga qanchalik ruxsat etilmasa, ularda shunchalik yuqori darajada qiziqish uyg'onishi barchaga ma'lum. Yoshlar tarmoqdagi nosog'lom tur mush tarzidan axborot beruvchi ayrim manbalarga duch kelsalar, yanada qiziqib, mazkur axborotlarga alohida e'tibor qaratishlari ehtimoldan xoli emas. Shu sababdan kattalar farzand tug'ilgan kundan boshlab ulariga issiq choynak, qozonlarga yaqinlashish, pichoq, qaychi kabi o'tkir uchli narsalarga tegish mumkin emasligini onglariga singdirganlari kabi, tarmoqdagi axborotlar ham xavfli ekanligini tushuntirishlari, ularda axborotlardan to'g'ri foydalanish salohiyatlarini shakllantirishlari zarur. Albatta, Internet tarmog'i manbalari zamonamiz o'smirlari bilim doirasini, dunyoqarashini kengaytirishi bilan ayrim jihatlariga ko'ra ularning tarbiyasiga nafaqat salbiy, balki xavfli ta'sir ko'rsatishi ham mumkinligini unutmasligimiz zarur.

Yaqindagina ota-onalar yoshlarning kompyuter o'yinlariga berilib, ularga bog'lanib qolishlari xavfidan cho'chib, oldini olishga harakat qilgan bo'lsalar, hozirgi vaqtida esa bu xavfga yana ijtimoiy tarmoqlar xavfi ham qo'shildi.

Internet – bu deyarli barcha qiziqishlarni qondirish makonidir. Ba'zan tarmoqda ayrim axborotlarni izlab o'tirishning ham hojati bo'lmaydi, ular har yerda o'zları taqdim etilaverishi sababli osongina erishish mumkin.

Shunday ekan undagi ba'zi bir xavflarning oldini olish maqsadida quyidagi tavsiyalarga e'tibor qaratish zarur:

1. Farzandingiz tarmoqdan foydalanmoqchi bo'lganida uni nazoratdan chetda qoldirmang;
2. Farzandingizning tarmoqqa birinchi qadamlaridanoq, Internetda faqatgina "yaxshi" emas, balki "yomon" axborotlarni ham uchratishi mumkinligini tushuntiring;
3. Internetdan biror manbani saqlab olishda e'tibor qaratish zarur bo'lgan qoidalarni tushuntiring;
4. Farzandingizga tarmoqda ham haqiqiy hayotdagi kabi tartib-intizom qoidalarni unutmaslik zarurligini ta'kidlang;
5. Farzandingizning Internetdan foydalanishida ba'zi hollarda cheklovлarni o'rnating;
6. Har kuni farzandingiz muloqotlarini kuzatib borishni o'zingizga odat qiling;
7. Farzandingiz va o'zingizning kompyuter savodxonligingizni muntazam rivojlantirib boring. O'z bilimlaringiz bilan o'rtoqlashing. Internet xavfsizligi sizning bu boradagi bilim va malakangizga ham bog'liq ekanligini unutmang<sup>7</sup>.

Axborot xurujlari ta'siriga eng ko'p beriladigan aholi qatlami bu yoshlardir. Afsuski, axborot-kommunikasiya texnologiyalarining jadal sur'atlar bilan rivojlanishi axborot tahdidlarining ham kuchayishiga olib kelmoqda. Internet vositasida ishlaydigan dasturlar,

<sup>7</sup> Ekstremizm-yoshlar ongiga salbiy ta'sir ko`rsatuvchi yot g`oya sifatida. Toshkent-2019.

ijtimoiy tarmoqlar orqali juda katta oqimda ma`lumotlar almashishi ro`y bermoqda. Ular asosan qiziqarli voqealar, gap-so`zlar, shou-biznes, sport xabarları, yangiliklardan iborat. Biroq hech kim tashqi kuchlar tomonidan ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlardan o`z maqsadi yo`lida foydalanmaydi, deb kafolat bera olmaydi. Misol uchun, Telegram messendjerida ba`zi bir guruhlarning ishtirokchilari soni 50 000 dan oshadi. Shunday guruhlar borki, unda asosan fahsh fotorasmlar, video lavhalar joylashtirilmoqda. Bu ma`naviyati, madaniyatida qur bo`lgan shaxslarni o`ziga jalb qilish uchundir. Aynan shunday toifa kishilar o`zlariga javob berisha olmaydi. Keyinchalik bunday kanallarda siyosiy mavzuga taalluqli ma`lumotlar tarqatilishi va guruh a`zolarining fikrini o`zgartirishga, ma`lum bir yo`nalishga solishga harakat qilinishi mumkin<sup>8</sup>.

Respublikamizning birinchi prezidenti muhtaram Islom Karimov “...bugungi zamonda mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham ko`proq kuchga ega” ekanligini ta`kidlagan edi. Mafkura poligonlarida kuchlar nisbati esa axborot, axborot xuruji vositasida hal etilmoqda.

Mamlakatimizga nisbatan qilinayotgan axborot xurujlariga qarshi kurashda ba`zan “It huradi, karvon o`tadi” qabilida ishlash o`rnlidek ko`rinadi. Biroq, fikrimcha axborot xurujlari kimlar, qaysi tuzilmalar tomonidan, nima maqsadda tashkil qilinayotganligi ma`lum bo`lganda, ularga qarshi kurashda eng yaxshi himoya hujum ekanligidan kelib chiqishimiz kerak.

Axborot xurujlariga qarshi kurashda kurashning tizimli bo`lishligi, uning zarur huquqiy bazasi shakllantirilganligi o`ta muhim. Shu bois axborot xavfsizligini ta`minlashga qaratilgan alohida qonun hujjati qabul qilish masalasi ko`rib chiqilishi kerak.

Ekspertlarning xulosalariga ko`ra hozir 35 yoshgacha bo`lgan aholining 60 foizi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, internet tizimidan keng foydalanmoqda, ularning eng faol qismini 18-24 yoshgacha bo`lgan yoshlar tashkil etadi. OAV va internetdan olingan axborotlar yoshlarning umumiyligi, shu jumladan, siyosiy madaniyatini, ogohlilik darajasini yuksaltirishga ham ma`lum darajada xizmat qilayotir. Bu esa hokimiyat tuzilmalari va ijtimoiy institutlar, qolaversa, aholining o`zi uchun ham ma`lum qulayliklar yaratadi, o`zaro muloqotni rivojlantiradi. Internetning ijtimoiy tarmoqlarini kuzatish bilan yoshlarning istaklari, ehtiyojlari haqida aniqroq tasavvurga ega bo`lish, ularning axborotlarini o`rganish orqali muayyan ijtimoiy muammolarni bartaraf etish yuzasidan tadbirlar belgilash mumkin. Bu esa yoshlar bilan muloqotning yangi turi bo`lishi bilan birga, o`zaro hamkorlikni mustahkamlash, boshqaruv organlari diqqat-e’tiborini yoshlar muammosiga kengroq jalb qilish imkoniyatidir.

Bu imkoniyatlar yoshlarga yaratiladigan shart-sharoitlar amalda o`z natijalarini namoyon qiladi. Bugun barkamol avlodni ma`naviy kamol toptirish, mustaqil fikrlaydigan, o`zini qat`iy hayotiy e’tiqod va qarashlariga ega bo`lgan yoshlarni tarbiyalash, ularni huquqiy va siyosiy madaniyatini yanada yuksaltirishda ko`p sonli jonkuyar va fidoiy yoshlarimizning o`rnini beqiyos.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan kelib chiqqan holda, yoshlar ma`naviyatiga salbiy ta’sir ko`rsatadigan axborot xurujlarini bartaraf etishga qaratilgan quyidagi taklif va tavsiyalar beriladi:

<sup>8</sup> Yoshlarning ongiga salbi ta`sir qiluvchi omillar. Toshkent-2013. M.Yusupova

**Birinchidan**, avvalo, global muammolar va axborot xurujlarining yoshlar ma'naviyatiga ta'sirini o'rghanishda, milliy qadriyatlar hamda xulq-atvor me'yorlarini, umumi qoidalarini zamon talablariga mos holda ishlab chiqishga jiddiy e'tibor qaratishimiz zarur.

**Ikkinchidan**, globallashuv bilan bog'liq xavflar va tahdidlarning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy, ma'naviy-mafkuraviy tomonlariga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirish maqsadga muvofiqdir.

**Uchinchidan**, mamlakatimiz hududiga kirib kelayotgan, axborot xurujlaridan har doim ogoh bo'lib, yoshlar ongi va ichki dunyosida kuchli mafkuraviy immunitetni shakllantirish lozim.

**To'rtinchidan**, yoshlarni axborot xurujlari, hozirgi kunning global muammolaridan biri bo'lib kelayotgan, "Ommaviy madaniyat" ta'siridan himoya qilishda ijtimoiy-gumanitar fanlarning ahamiyatini oshirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida yoshlarda milliy qadriyatlarga bo'lgan yangicha munosabatni qaror toptirish kerak.

**Beshinchidan**, yoshlar ongiga salbiy ta'sir etadigan, milliy urf-odatlarimizni, ma'naviy qadriyatlarimizni buzuvchi harakatlarga qarshi kurash mexanizmini ishlab chiqish hamda uni ijtimoiy hayotga tadbiq etish orqali yoshlar ma'naviyatini yanada yuksaltirish zarur.

**Oltinchidan**, yoshlarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, internet tarmoqlaridan unumli foydalanish tizimini, zamon talablariga mos holda ishlab chiqish hamda kerakli ma'lumotlarni olishlariga ko'maklashish, dunyoviy ilmlarni egallashlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratib berish kerak. Bu borada mamlakat Prezidenti Sh.Mirziyoyevning quyidagi fikrlarini aytib o'tish zarur: "Bugungi tez o'zgarayotgan dunyo insoniyat oldida, yoshlar oldida yangi yangi, buyuk imkoniyatlar ochmoqda. Shu bilan birga, ularni ilgari ko'rilmagan turli yovuz xavf-xatarlarga ham duchor qilmoqda. G'arazli kuchlar sodda, g'o'r bolalarni o'z ota-onasiga, o'z yurtiga qarshi qayrab, ularning hayotiga, umriga zomin bo'lmoqda. Bunday keskin, tahlikali sharoitda biz ota-onalar, ustoz-murabbiylar, jamoatchilik, mahalla ko'y bu masalada hushyorlik va ogohlilikni yanada oshirishimiz kerak. Bolalarimizni birovlarning qo'liga berib qo'ymasdan, ularni o'zimiz tarbiyalashimiz lozim"<sup>9</sup>.

To'g'ri, haqiqatni rad etmagan holda, shuni alohida ta'kidlab o'tishimiz kerakki, internet tarmoqlari ta'lim olish, dam olish yoki do'stlar bilan muloqot qilishning ajoyib vositasidir. Shu boisdan ham, internet tarmoqlaridan foydalanuvchilar soni yildan yilga oshib borayotganligini inobatga olsak, axborot manbai sifatida OAV, internetdan axborotlar izlash kundan kunga jadallahmoqda. Bu esa qaysi sohaga oid bo'lishidan qat'iy nazar internetning milliy segmentida o'z axborotlarimizni tobora ko'paytirib borishni taqozo etadi. Albatta, yoshlarni ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishda internet tarmog'idan foydalanish o'zining samarasini berishi tabiiy.

Ayni vaqtda, ijtimoiy tarmoqlar bilim va kerakli axborotni olish uchun ulkan imkoniyatlar yaratish bilan birgalikda, inson hayotining deyarli barcha jihatlariga dahl qilmoqda. U shaxsga o'z bilimlarini oshirish, professionalizmini yuksaltirish, ehtiyoj va mayllaridan kelib chiqqan holda hordiq chiqarish, xalqaro va ichki siyosatda sodir bo'layotgan voqealarni kuzatib borish, siyosiy va iqtisodiy munosabatlarning faol subyekti bo'lish, birja o'yinlarida qatnashish, badiiy asarlar yaratish, ko'rgazmalar uyuştirish, taqdimotlar o'tkazish,

<sup>9</sup> Yoshlarning ongiga salbiy ta'sir qiluvchi omillar. Toshkent-2013. M.Yusupova

zarur narsalarni xarid qilish imkonini beradi. Aynan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, internet tarmoqlar tufayli kutubxona, muzeylar, kartina ko'rgazmalar kabi madaniyatning an'anaviy institutlari tub o'zgarishlarga duchor bo'ldi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, internet tarmoqlarning sharofati bilan virtual kutubxonalar, virtual muzeylar, virtual ko'rgazmalar, virtual munozara klublari, elektron do'konlar, elektron axborot agentliklari, ta'lif portallari paydo bo'ldi. Internet hukumatlar, davlat rahbarlari, turli vazirliklar va tashkilotlar, siyosiy partiyalar va jamoat tashkilotlari faoliyatining fuqarolar uchun shaffof bo'lishiga xizmat qildi. Internet millionlab kishilarga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish imkonini berdi, uning erkinligini kengaytirishga xizmat qildi. Ayni paytda bu yo'nalishdagi ishlarni yanada samarali tashkil etish, davlat va jamoat birlashmalarini axborot xizmatlari, mediatuzilmalar ishini faollashtirish, soha mutaxassislarini esa bilim va ko'nikmalarini muttasil oshirib borish hozirgi axborot va kommunikatsiya texnologiyalari shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda internetdan foydalanuvchilar soni yildan yilga ortib borishi oqibatida, internet so'nggi yillar mobaynida global tarmoqqa aylanib ulgurdi. Buning natijasida dunyoda nafaqat axborotlashgan jamiyat yuzaga keldi, balki jahon hamjamiyatida globallashuv jarayonlari tezlashib ham ketdi. Aslida, axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi bu-ijobiy ko'rsatkichdir.

Kompyuter o'yinlariga mukkasidan ketishning jamiyatga zararlari ko'p. Avvalo bu ma`naviy zarar bo'lib, kompyuter o'yinlari jamiyatimizni ma`naviy buzuqlik botqog'iga botirib, insonni o'zlikni anglash baxtidan mosuvo qilmoqda.

Islom dinimiz ta`limotlarida ham bu kabi amallar qattiq qoralangan: *"Axir, (qilgan) yomon ishi o'ziga chiroyli ko'rsatilib, uni go'zal (ish) deb o'ylagan kimsa (hidoyat topgan zot kabi bo'larmidi)?!. Zotan, Alloh O'zi xohlagan kimsalarni yo'ldan ozdirur va O'zi xohlagan kishilarni hidoyat qilur. Bas, (Ey Muhammad!) Ularga hasratlar chekib joninggiz (chiqib) ketmasin. Albatta, Alloh ularning qilayotgan sir sinoatlarini biluvchidir."* (Fotir, 8).

Shayton vasvasasiga uchragan ayrim yoshlarning virtual o'yinlariga xatti-harakatlari o'zlariga ziynatli ko'rindi. O'yinlar quliga aylangan bola o'z-o'zidan ajablanib, qilgan ishi ko'zini quvontirib, borgan sari haddidan oshaveradi.

Kompyuter o'yinlari yoshlarning vaqtini o'g'irlamoqda. Internet – klublarda yoshlar ayni o'qib, ilm hosil qiladigan paytlarda vaqtlarini bekorchi o'yinlarga, ijtimoiy tarmoqlarda mutlaqo notanish shaxslar bilan qimmatli vaqtini tanishishga sarflayotgani tashvishli holat. Chunki internet va kompyuter o'yinlari asriga aylangan o'smirlar hayotdan, ilm olish, kasb o'rganishdan va ma'naviy qadriyatlardan tamoman uzilib, butunlay manqurtlashib boradi. Hozir kompyuter o'yinlari orqali o'smir yoshlarga salbiy ta'sir qilib, ular ongiga o'z buzz'unchi g'oyalalarini singdirish yoki ularni to'g'ri yo'ldan ozdirishga urinadigan yashirin kuchlar juda ko'p. Kompyuter o'yinlariga mukkasidan ketgan o'smirlar o'zlari bilmagan holda yashirin kuchlarning qo'g'irchog'iga aylanadi. Kompyuterga mute` bo'lgan yoshlarning fikri-xayoli, butun vaqt, hatto uyqusi ham bemani o'yinlar bilan band bo'ladi. Oxir-oqibat bunday manqurt yoshlar tengdoshlari, yaqinlari va hatto ota-onasiga ham qo'l ko'tarishgacha agar mubolag'a bo'lmasa qurol o'qtalishgacha borib yetadi. Bu esa jamiyatda ilimsizlik, johillikning tomir yoyishiga alal oqibat yurt parokanda bo'lishiga olib keladi.

Yoshlarning bunday g'oyalarga aldanmasligi, zalolat botqog'iga botmasligini ta`minlash niyatida zarur tavsiyalarni bayon qilamiz. Maqsadimiz yoshlarni internetga in qurib, o'zlarining

vayronkor g'oyalarini virus kabi butun dunyoga tarqatayotgan jinoyatchilarning asl basharasidan ogoh etishdir. Sog'lom aql egalari internet qulayliklaridan o'z bilimlarini oshirish yo'lida oqilona foydalanadi. Lekin ba`zi yoshlar esa ushbu tarmoqdagi yovuzlikka, ma`naviy tanazzulga sabab bo'ladigan saytlarda "sayir qilib", o'zlar va atrofdagilarning ongini zaharlayotganlari aniq. Internet bozorida har kim o'ziga kerakli narsani oladi, deb tarbiyani o'z holiga tashlab qo'yish yaramaydi.

Shuning uchun ham yoshlarda xabar va ma'lumotlarni tahlil eta olish malakasini hosil qilish zarur. Zero har qanday xabar ham to'g'ri va xolis bo'lavermaydi. Har bir ma'lumotni tekshirish haqida Alloh taolo shunday deydi: "*Ey mo'minlar! Agar sizlarga biror fosiq kimsa xabar keltirsa, sizlar (haqiqiy ahvolni) bilmagan holingizda biror qavmga aziyat yetkazib qo'yib, (keyin) qilgan ishlaringizga pushaymon bo'lmasingiz uchun (u xabarni) aniqlab (tekshirib) ko'ringiz!*" (*Hujurot*, 6).

Xalqimizda "*ogoh bo'lgan abgor bo'lmash!*" degan naql bor. "O'rgimchak to'rida aqidaparastlikni targ'ib qiluvchi saytlar tobora ko'payib bormoqda. Bunday tahlikali zamonda yoshlarga faqat "uz" domenidagi saytlardan foydalamish tavsiya qilinadi. Zero, ehtiyoitsizlik bilan ko'r-ko'rona olingan ma'lumotlar kishini adashtirib qo'yishi aniq. Diniy ehtiyojini e'tiqod va mazhabga yot veb-saytlardan qondirayotgan kishilar boshqa manbalar orqali boshqalar, ya` ni g'animlar qo'lida tarbiyaloyatganini unutmasin!

Inson bolasi zoye` qilgan vaqt, ya` ni umrini nimaga sarflagani xususida olamlar Parvardigori oldida javob berishini bilsin. Muoz ibn Jabal r.adan rivoyat qilinadi: Payg'ambar s.a.v aytdilar: "Banda qiyomat kuni to'rt narsadan so'ralmaguncha, bir qadam ham oldinga siljiy olmaydi. Bu savollardan birinchisi - umrini nima bilan o'tkazgani; ikkinchisi - yoshlik davrida nima bilan mashg'ul bo'lgani; uchinchisi - mol-dunyoni qay yo'sinda (qaysi kasb orqali) topgani va nimalarga sarflagani; to'rtinchisi - o'rgangan ilmiga qanday amal qilgani haqida bo'ladi". Shunday ekan yoshlarimiz bu muborak hadisni hech qachon ham xotiralaridan chiqarmasliklari kerak va hayot davomida ushbu hadisni mahkam ushlab unga amal qilmog'i lozim, aks holda kompyuter o'yinlariga mukkasidan ketgan bola Islom dini buyurganidek kasb-hunar egallash, ilm olish, ota-onaga yaxshilik qilish, qarindoshurug'chilikni bog'lash va boshqa muhim ko'rsatmalarni bajarish uchun, "band bo'lgani" bois vaqt topa olmay, ushbu hadisning savobiga doxil bo'la olmaydi<sup>10</sup>.

Agar yoshlar Alloh taolloning tavsiyalariga rioya qilsa, uning ikki dunyoda hayoti namunali kechadi va jamiyat oldida inson degan ulug' nomni e`zozlagan bo'ladi. Agar inson bu boradagi muvozanatning buzulishiga sabab bo'ladigan yomon yo'llarga qadam qo'ysa, omonat qilib topshirilgan umr va aql nematiga xiyonat qilgan bo'ladi va o'zini halokat chog'iga otgan bo'ladi.

*Kompyuter o'yinlari kabi behuda va talofatli ishlarga sho'ng'ishni islom dini qoralaydi. Chunki buning natijasida bolaning iyomon-e'tiqodi zaiflashib, shaytonning quliga aylanadi va uning nayranglari bo'yicha ish qiladi. Oqibatda o'zi ham halok bo'ladi.* Bu borada bir qancha hayotiy misollar keltirishimiz mumkin shuning uchun yoshlarning iyomon-e'tiqodi, irodasi mustahkam bo'lsa, turli bema`ni ishlarga chalg'imaydi. Ammo kompyuter va internet tutquniga aylangan inson butun umrini tubanlikka sarflaydi. Go'yoki yaratilishdan maqsad

<sup>10</sup> Hadislari to`plami. Toshkent-2019

yo'qdek. Axir Alloh taoloning: "Yoki sizlarning gumoningizcha, Biz sizlarni behuda yaratdik-u, sizlar bizning huzurimizga qaytarilmaysizmi?!" (Mu'minun, 115), - degan oyati shunchaki dunyoga keltirilmaganimizni aytib turibdi. Doimo shuni esdan chiqarmasligimiz shart va ushbu oyati karima ila umr guzaronlik qilsak, shundagina ikki dunyoda ham baxtli va saodatli bo'lish sharafiga erishamiz<sup>11</sup>.

Bir hafta davomida 110 dan ortiq ishtirokchi "Internetdagи ijtimoiy tarmoqlar yoshlar hayotida qanday o'rin tutadi?" so'rvnomasiga o'z munosabatlarini bildirishdi. Qizig'i shundaki, o'quvchilarning 32 foizi ushbu tarmoqlar do'stlar orttirish, manfaatli tanishuvlar uchun kerak degan fikrni ma'qullagan bo'lsa, yana shuncha foydalanuvchi tarmoqlarning yoshlar tarbiyasi va odob-axloqiga salbiy ta'sir ko'rsatayotganini tan olgan. Demak, bugun ijtimoiy tarmoqlar qanchalik ommalashmasin, uning salbiy oqibatlarini ko'ra bilayotganlar safi ham oshib bormoqda. So'rvomaning to'liq natijasi bilan tanishing: Savol: Internetdagи ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar hayotida qanday o'rin tutadi?

1. Do'stlar orttirish va manfaatli tanishuvlarga yordam beradi - 32 (26.9%);
2. O'z fikrini erkin bildirish imkoniyatini beradi - 24 (20.2%);
3. Yoshlar tarbiyasi va odob- axloqiga salbiy ta'sir ko'rsatadi - 32 (26.9%);
4. G'araz niyatli shaxslarning o'z manfaati yo'lida foydalanishi uchun bir vosita - 10 (8.4%);
5. Bekorchilikdan boshqa narsa emas - 21 (17.6%).

Ijtimoiy tarmoqlar va jamiyat Hozirgi globallashuv jarayonida va jahonda olamshumul o'zgarishlar sodir bo'layotgan bir paytda biz nafaqat aniq bir inson, balki butun jamiyat hayotiga o'z ta'sirini o'tkazib kelayotgan axborot texnologiyalarining ajoyib ixtiolaridan biri bo'lmish sotsial tarmoqlarni chetlab o'tolmaymiz. Joriy vaqtda sotsial tarmoqlar deyarli butun dunyoni qamrab olgan. Ayniqsa, yosh avlod juda ham sotsial tarmoqlarni yaxshi ko'radi. Kimga internetda o'z rasmlarini qo'yish, olis masofadagi do'stlar va qarindoshlar bilan gaplashish, o'yinlar o'ynash, musiqa tinglash va so'nggi yangiliklardan xabardor bo'lish, statuslarni tinmay o'zgartirish yoqmaydi deysiz? Agar biz sotsial tarmoqlar soniga va ularning turlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ularning hammasini yoritishda bu maqola ojizlik qiladi. Keling biz eng mashhur sotsial tarmoqlar va ularga qancha foydalanuvchi a'zo bo'lganligiga bir nazar tashlaylik: Facebook - 750 million, Twitter - 200 million, Qzone - 480 million, [Odnoklassniki.ru](#) - 100 million, V kontakte - 135 million va hokazo<sup>12</sup>.

Mana ko'rib turganingizdek, shu raqamlar insoniyatning qanchalik sotsial tarmoqlar ichiga kirib ketayotganligidan dalolat bermoqda. Tabiiyki, sizda savol paydo bo'lishi mumkin: bu yaxshimi yoki aksinchami? Albatta, ko'pchilik bu tarmoqlarni ma'qullaydi va unga ijobjiy baho beradi. Chunki, hozir sotsial tarmoqlar bo'sh vaqtini o'tkazishning eng yaxshi vositasi hisoblanadi. Endi esa, keling, sotsial tarmoqlarnig bizning hayotimizga, dunyoqarashimizga, ongimizga, aql-u shuurimizga va sog'lig'imizga qanday ta'sir etishi haqida fikr yuritaylik. Internetning zo'r berib rivojlanishi bilan odamzod borgan sari me'yorni unutib, uning girdobiga bexosdan tortilmoqda. Axir biz bir muhim narsani esdan chiqarmasligimiz darkor: real hayot boshqa, virtual hayot boshqa.

<sup>11</sup> Hadislар to`plами. Toshkent-2019

<sup>12</sup> Ekstremizm-yoshlar ongiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi yot g`oya sifatida. Toshkent-2019.

Biz sotsial tarmoqlarga qarshi emasmiz, biz faqatgina ularni real hayotimiz bilan farqi, ularni o'zaro chalkashtirmslik lozimligini aytib o'tdik. Albatta, ulg'ayib kelayotgan yosh avlod fan - texnika yutuqlaridan va axborot texnologiyalarining muvaffaqiyatlaridan foydalanishi kerak. Lekin dunyoda har narsa bilan foydalanishning o'ziga yarasha me'yori mavjud va ularni suiste'mol qilmaslik lozim. O'ylashimizcha, yoshlar bo'sh vaqtini faqat sotsial tarmoqlarda o'tirish bilan o'tkazishlari noto'g'ri. Chunki, jonli, haqiqiy va real muloqot o'mini hech narsa bosa olmaydi. Yoshlar kitob o'qishlari, o'z ustilarida ishlashlari hamda ijtimoiy faoliykn oshirishlari lozim. Tarmoqdagi faoliyik hyech narsani belgilamaydi va inson to'g'risida haqqoniy bo'limgan ma'lumotlarni saqlashi mumkin. Maqolamizga yakun yasar ekanmiz, biz sotsial tarmoqlarning hayotimizga bo'lgan ta'sirini rad etolmaymiz. Biz ongli ravishda sotsial tarmoq a'zosi bo'la turib, real hayot va virtual hayotni farqlay bilishimiz lozim.

## XULOSA

Ma'rifatparvar adib Fitratning "Bu dunyo kurash maydonidir. Sog'lom tan, o'tkir aql va yaxshi axloq bu maydon qurolidir", - degan so'zlari ham bejiz emas. Agar ozgina parishon bo'linsa, tashqi yot kuchlar bundan ustamonlik bilan foydalaniib, omma ongini zaharlashi, turli oqimlar tomon og'dirishi, yo'ldan ozdirishi hech gap emas, jangda sen dushmanni otmasang, u seni otadi. Bu oddiy mantiq.

Fuqarolarining va ayniqsa yoshlar ong va ma'naviyatini to'g'ri tarbiyalashda targ'ibotchilarning faoliyati muhim hisoblanadi.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "bugungi tez o'zgarayotgan dunyo insoniyat oldida, yoshlar oldida yangi-yangi, buyuk imkoniyatlar ochmoqda. Shu bilan birga, ularni ilgari ko'rilmagan turli yovuz xavf - xatarlarga ham duchor qilmoqda.

G'arazli kuchlar sodda, g'o'r bolalarni o'z ota - onasiga, o'z yurtiga qarshi qayrab, ularning hayotiga, umriga zomin bo'lmoqda. Bunday keskin va tahlikali sharoitda biz ota-onalar, ustoz-murabbiylar, jamoatchilik, mahalla-ko'y bu masalada hushyorlik va ogohlilikni yanada oshirishimiz kerak. "Bolalarimizni birovlarining qo'liga berib qo'ymasdan, ularni o'zimiz tarbiyalashimiz lozim".

So'nggi yillarda aqidaparast oqimlar yoshlar ichidagi faoliyatini mehnat migrantlarini ta'sir doirasiga olish, diniy ekstremistik mazmundagi materiallarni elektron ko'rinishda tarqatish, "Internet" orqali targ'ibot o'tkazish, yashirin "Hujralar" tashkil etish kabi usullarda amalga oshirmoqda. Ayniqsa, Internet tarmog'ida "Iroq davlati", "Jabat al-Nusra" kabi terroristik tashkilotlar guyoki islom ravnaqi yo'lida kurashayotgan "Mujohid birodarlar guruhi" ekani haqidagi targ'ibot-tashviqot keng ko'lamma olib borilayotgani, buning oqibatida dunyoning ko'plab mamlakatlaridan musulmon yoshlar "hijrat" qilish va "jihad"da ishtirot etish da'vosida Suriya va Iroq hududiga borib, ushbu guruh safiga qo'shilayotganing guvohi bo'lmoqdamiz.

Mutaassib oqim a'zolarining bosh maqsadi "jihad", "hijrat", "shahidlik", "kofir bo'lish" kabi diniy tushunchalarni soxta talqin qilish orqali yoshlarimizni qurolli to'qnashuvlar ketayotgan Suriya, Iroq, Afg'onistoni yoki Pokiston kabi mamlakatlarga jo'natib, "manqurt - jangari" yoki "tirik bomba"ga aylantirishdan iborat.

Internet va yuqori texnologiyalar tufayli dunyoda madaniyatlar va davlatlar o'rtasidagi chegaralar yo'qolib bormoqda.

*Hozirda Internet tarmoqlarida buzg'unchilik, zo'ravonlik va axloqsizlikni, "ommaviy madaniyat"ni targ'ib etadigan saytlar faoliyat ko'rsatmoqda. Ana shunday keskin va murakkab axborot xurujlari va xavf-xatarlarga biz qanday qarshi tura olamiz?*

Ayni vaqtda, yoshlarning turli norasmiy, noislomiy diniy jamoalarning ta'siriga tushib qolishining oldini olishda o'quv muassasalari va mahalla tomonidan tizimli ravishda tushuntirish ishlari olib borishi muhim o'rin tutadi.

Yoshlarda yot g'oyalarga nisbatan ma'naviy immunitet shakllanmas ekan, "bu - yaxshi, bu- yomon" degan qat'iy fikr paydo bo'lmas ekan, maskuraviy xatarlarga qarshi turish qiyin bo'ldi.

Xalqimizda "Yaxshi bola yurt tuzar, yomoni elni buzar" degan purhikmatli gap bor.

Yurtimizda hukm surayotgan tinch va osuda hayotni asrash, uning mustaqilligi va barqarorligiga munosib hissamizni qo'shish har birimizning, shu aziz Vatanda yashayotgan barcha fuqarolarning asosiy vazifalaridan biri bo'lib qolmog'i lozim. Mustaqilligimizni asrab-avaylashga chorlaydi. Muhimi, tinchlik-totuvlik, mehr-oqibat bor ekan, o'z orzu-maqsadlarimizga albatta erishamiz.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YHATI:**

1. Yoshlarning ongiga salbi ta` sir qiluvchi omillar. Toshkent-2013. M.Yusupova
2. Axborot texnologiya asoslari. Darsalik. IIV Akademiyasi. T-2017
3. Yuksak ma`naviyat yengilmas kuch. I.Karimov. Toshkent-2008
4. Hadislar to`plami. Toshkent-2019
5. Ekstremizm-yoshlар ongiga salbiy ta` sir ko`rsatuvchi yot g`oya sifatida. Toshkent-2019.
6. Yoshlarga oid davlat siyosati to`g`risidagi qonun. Toshkent-2016.